



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-mart*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, %



2024-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **12 139** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **34** ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar **12 105** tani tashkil etmoqda.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **6 577,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **108,0** % ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 039,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **97,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 538,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,3** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **733,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,9** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	6 577,5	108,0
Samarqand sh.	2 231,7	108,4
Kattaqo'rg'on sh.	254,8	108,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	157,4	108,3
Bulung'ur	420,8	109,7
Jomboy	222,2	107,4
Ishtixon	259,5	108,4
Kattaqo'rg'on	334,7	107,3
Qo'shrabot	132,5	105,2
Narpay	331,5	105,8
Payariq	196,5	107,5
Pastdarg'om	233,8	105,2
Paxtachi	120,2	109,2
Samarqand	730,7	108,1
Nurobod	106,4	105,1
Urgut	645,8	109,0
Toyloq	199,0	109,1


2024-yilning yanvar-mart oylarida 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Bulung'ur (**109,7** %), Paxtachi (**109,2** %), Toyloq (**109,1** %), Urgut (**109,0** %), Ishtixon (**108,4** %) tumanlarida va Samarqand shahrida (**108,4** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2020-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.

2023-2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati **108,0** % ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush **Samarqand shahrida 33,9 %** bilan **2 231,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, **Nurobod tumani 1,6 %** bilan **106,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	2 231,7
Samarqand	730,7
Urgut	645,8
Bulung'ur	420,8
Kattaqo'rg'on	334,7
Narpay	331,4
Ishtixon	259,4
Kattaqo'rg'on sh.	254,8
Pastdarg'om	233,8
Jomboy	222,2
Toyloq	199,0
Payariq	196,5
Oqdaryo	157,4
Qo'shrabot	132,5
Paxtachi	120,2
Nurobod	106,4




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 538,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **10,3** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **84,2** % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **97,4** % ni tashkil etdi va **1 039,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **15,8** % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaq'org'on shahri (99,9 %), Narpay (99,5 %), Ishtixon (99,4 %), Qo'shrabot (99,1 %) va Payariq (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (34,7 %) va Samarqand (27,9 %), Kattaqo'rg'on (4,4 %), Pastdarg'om (3,8 %) tumanlarida kuzatildi.

15,8 %



84,2 %



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Samarqand viloyati 1 559,4

Samarqand sh. 3 805,1

Kattaqo'rg'on sh. 2 682,0

Oqdaryo 906,3

Bulung'ur 2 078,1

Jomboy 1 169,0

Ishtixon 938,3

Kattaqo'rg'on 1 137,0

Qo'shrabot 932,6

Narpay 1 455,0

Payariq 717,2

Pastdarg'om 608,8

Paxtachi 788,4

Samarqand 2 671,7


Nurobod 653,0

Urgut 1 151,8

Toyloq 897,9

2024-yilning yanvar-mart oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 559,4** ming. so'mni (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **105,7 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**3 805,1** ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**2 682,0** ming so'm) va Samarqand (**2 671,7** ming so'm), Bulung'ur (**2 078,1** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunda dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-mart), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	733,4	113,9	271,1	96,0	462,3	127,8
Samarqand sh.	66,1	122,3	47,0	84,5	19,1	4,4 m.
Kattaqo'rg'on sh.	87,2	109,1	34,8	60,4	52,4	104,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	42,7	112,4	2,0	77,5	40,7	115,0
Bulung'ur	58,5	109,8	22,5	159,9	35,9	89,0
Jomboy	51,5	105,8	24,4	58,4	27,1	121,9
Ishtixon	51,2	100,0	26,6	165,5	24,6	88,1
Kattaqo'rg'on	53,5	127,4	28,3	2,1 m.	25,3	79,6
Qo'shrabot	29,0	101,2	3,3	33,9	25,7	178,9
Narpay	38,3	108,2	16,0	3,2 m.	22,3	10,1 m.
Payariq	46,8	116,5	13,2	77,5	33,6	96,5
Pastdarg'om	31,1	119,6	1,9	132,3	29,1	125,9
Paxtachi	36,2	118,1	12,6	132,5	23,5	140,2
Samarqand	26,3	119,5	4,3	2,5 m.	22,0	2,2 m.
Nurobod	33,0	110,4	3,9	32,2	29,2	2,5 m.
Urgut	43,8	139,1	20,3	129,5	23,5	159,4
Toyloq	38,3	117,2	9,9	110,7	28,4	129,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2024-yil yanvar-mart)














Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024-yil yanvar-mart)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **733,4** mlrd. so'mni, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **113,9 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **271,1** mlrd. so'mni (**96,0 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **462,3** mlrd so'mni tashkil etdi (**127,8 %**).













2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **271,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**114,6** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 114,6 <i>mlrd. so'm</i>  42,3 %	Non va non mahsulotlari 20,6 <i>mlrd. so'm</i>  7,6 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 32,6 <i>mlrd. so'm</i>  12,0 %
Tovuq go'shti 18,7 <i>mlrd. so'm</i>  6,9 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 30,9 <i>mlrd. so'm</i>  11,4 %	Tuxum 11,1 <i>mlrd. so'm</i>  4,1 %
Ziravorlar 11,5 <i>mlrd. so'm</i>  4,3 %	Sut va sut mahsulotlari 9,8 <i>mlrd. so'm</i>  3,6 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 7,4 <i>mlrd. so'm</i>  2,7 %
Tuzlamalar 9,7 <i>mlrd. so'm</i>  3,6 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 4,2 <i>mlrd. so'm</i>  1,5 %	

2024-yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **462,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **382,6** mlrd.so'm, qo'y va echkilar **58,9** mlrd. so'mni, otlar **18,6** mlrd. so'mni, parrandalar **2,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>197,1 mlrd. so'm</p>  <p>42,6 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>118,6 mlrd. so'm</p>  <p>25,7 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>66,9 mlrd. so'm</p>  <p>14,5 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>44,8 mlrd. so'm</p>  <p>9,7 %</p>	<p>Otlar</p> <p>18,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>14,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,027 mlrd. so'm</p>  <p>0,006 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,022 mlrd. so'm</p>  <p>0,005%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 963** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 957** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	249,7	103,5
Samarqand sh.	145,8	120,9
Kattaqo'rg'on sh.	6,1	114,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	1,4	133,2
Bulung'ur	6,6	109,1
Jomboy	4,8	122,3
Ishtixon	1,5	113,2
Kattaqo'rg'on	3,3	110,2
Qo'shrabot	2,5	117,5
Narpay	3,1	114,8
Payariq	2,8	104,6
Pastdarg'om	22,3	104,7
Paxtachi	2,9	107,0
Samarqand	14,0	112,6
Nurobod	2,7	117,1
Urgut	7,0	105,4
Toyloq	22,9	48,5

2024-yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **249,7** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **3,5 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **84,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	626,3	100,0
Samarqand sh.	441,5	70,5
Kattaqo'rg'on sh.	3,3	0,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	3,0	0,5
Bulung'ur	1,9	0,3
Jomboy	0,4	0,1
Ishtixon	2,6	0,4
Kattaqo'rg'on	4,4	0,7
Qo'shramot	0,1	0,02
Narpay	2,3	0,4
Payariq	0,6	0,1
Pastdarg'om	0,1	0,02
Paxtachi	1,3	0,2
Samarqand	38,3	6,1
Nurobod	7,8	1,2
Urgut	0,4	0,1
Toyloq	118,3	18,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**441,5** mlrd. so'm), Toyloq (**118,3** mlrd. so'm) va Samarqand (**38,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **626,3** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **27,4 %** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **109,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **144,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **516,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,3 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 684,8** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **22,2 %** ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

50,5 %

1 900,2 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

49,5 %

1 784,5 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 784,5** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **103,3 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **48,4 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 185** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **28** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 157** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Samarqand (**2,2 m.**), Toyloq (**158,0 %**), Samarqand sh. (**155,0 %**) va Bulung'ur (**114,2 %**) hududlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	3 684,8	122,2
Samarqand sh.	2 704,8	129,0
Kattaqo'rg'on sh.	65,5	99,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	19,8	112,1
Bulung'ur	101,7	105,4
Jomboy	40,8	98,4
Ishtixon	20,7	101,9
Kattaqo'rg'on	44,7	99,4
Qo'shrabot	7,9	102,3
Narpay	30,8	96,8
Payariq	14,5	96,6
Pastdarg'om	152,8	101,5
Paxtachi	5,8	105,8
Samarqand	230,9	113,7
Nurobod	15,5	98,0
Urgut	122,8	102,5
Toyloq	105,8	126,7